

**MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY
INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Bo'riyev Sardor Norovich¹

¹ Urganch Davlat Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.11.2024

Revised: 27.11.2024

Accepted: 28.11.2024

Ushbu maqolada mintaqalarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati, xorijiy investitsiyalarga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*portfel investitsiya,
to'g'ridan - to'g'ri xorijiy
investitsiya,
investitsiya muhiti,
xorijiy investitsiya
ishtirokidagi
korxona.asosiy kapital,
YaIM.*

KIRISH. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, mintaqalarni faol ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarga muhim moliyaviy vosita sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi" deb ta'kidlangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy investitsiyalarning mazmun- mohiyati iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta'kidlab o'tish lozim.

Xorijiy investitsiyalar aktivlar egasining to'liq yoki qisman nazorati ostida moddiy boylik yaratish maqsadida foydalanish uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazilishini anglatadi [2].

F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiya jalb qilish ko'lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi [3].

F. Xeniusning 1947-yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: "Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar".

Sh.Q. Fozilchayev va N.G'. Xidirovlarning "Investitsiya va lizing asoslari" kitobida xorijiy investitsiyaga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir".[4]

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ishidagi muammoni o'rganish uchun ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat va hududlarning investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hududning investitsion salohiyatidir. Iqtisodiyotning rivojlanishi va shakllanishida investitsion salohiyatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lib, bu orqali har qanday investor o'z imkoniyatini belgilashi bilan bir qatorda sarmoyasining kafolatlanganlik darajasini ham aniqlashi mumkin bo'ladi.

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish bo'icha biz Qashqadaryo viloyatini tanlab oldik va viloyatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar oqimini yillar kesimida tahlil qilamiz (1-jadval).

2018-2022-yillarda Qashqadaryo viloyatiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi, mln.


AQSH dollari [5]

№	Hudud nomi	Yillar					2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, foizda	2022-yilda jamiga nisbatan o'zgarishi, foizda
		2018	2019	2020	2021	2022		
	Qashqadaryo viloyati	186,3	192,0	214,1	225,7	228,7		
	Shu jumladan, tuman va shaharlar kesmida							
1	Qarshi sh.	49,2	49,8	53,6	70,94	47,60	96,7	20,8
2	Shahrisabx sh.	5,8	6,1	7,9	4,26	10,02	172,8	4,4
3	Chiroqchi	5,1	5,5	6,5	3,23	10,75	210,8	4,7
4	Mirishkor	9,3	9,2	10,6	25,99	13,63	146,6	6,0
5	Koson	3,9	4,1	4,4	5,13	7,92	203,1	3,5
6	Qarshi t	10,5	10,9	12,5	3,00	8,15	77,6	3,6
7	Dehqonobod	0,7	1,4	0,8	3,26	2,90	414,3	1,3
8	Nishon	0,9	1,3	1,0	6,11	6,51	723,3	2,8

9	Kitob	12,8	13,6	23,2	9,43	15,54	121,4	6,8
10	Shaxrisabz	7,3	7,5	8,6	23,86	3,72	51,0	1,6
11	Kasbi	3,3	3,8	3,6	5,28	0,94	28,5	0,4
12	Muborak	6,3	6,6	7,3	4,63	5,23	83,0	2,3
13	Qamashi	2,9	3,1	2,2	9,14	14,18	489,0	6,2

2018-2022-yillarda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarishidan shuni ko'rish mumkinki, 2018-yilda viloyat iqtisodiyotiga 186,3 mln. AQSH dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich o'tgan yillar davomida doimiy o'sib borgan. Jumladan, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 122,7 foizga o'sib, 228,7 mln. AQSH dollari tashkil etgan.

Hududlarda to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qator yo'nalishlardagi ustunliklar ta'minlanishi va investorning diqqatini jalb qilish lozim. Shu sababli hududning xorijiy investorlar uchun jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi qo'shimcha omillarni 1-rasmda keltirib o'tamiz.[6]



1-rasm. Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni joylashtirishga ta'sir qiluvchi omillar

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qator muammolar yuzaga kelmoqda. Hududlarda qulay investitsiya muhiti yaratilmaganligi, xususan, raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasida tizimli muammolarning mavjudligi sababli hududlarga xorijiy investitsiyalar jalb qilish tendensiyasi yildan-yilga pasayib bormoqda. Bundan tashqari, eksport salohiyati yuqori bo'lgan - mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida asosiy kapitalni shakllantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning darajasi pastligicha qolmoqda.[7]

Xulosa va takliflar.

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmining pasayib borayotganligi xorijiy investorlarni hudud to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar bilan

ta'minlanmasligi bilan bog'liq. Ushbu muamoni bartaraf etish maqsadida xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil, xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha «Viloyat investitsiya salohiyati» veb-portalini tashkil etish lozim.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududlar investitsion jozibadorlikni oshirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy investorlarni mamlakatning iqtisodiy-investitsion salohiyati, biznes yuritish uchun yaratigan shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar to'g'risida keng xabardor qilish maqsadida xalqaro anjumanlar va investitsion forumlar tashkil etishni jadallashtirish, bu borada videolavhalar tayyorlash;
- maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish jarayonlarini yanada jadallashtirish, ushbu zonalariga yirik strategik investorlarni jalb qilish;
- O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini mustahkamlash;
- chet ellik investorlarga investitsion ob'ektlarni taqdim etishning samarali tizimini yaratish (axborot bilan ta'minlash, reklama, marketing, hukumat va biznes vakillarining qo'shma uchrashuvlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi ta'minoti va .k.);

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi //Xalq so'zi. 2020-yil 29-dekabr.

2. Международное право об иностранных инвестициях | Высшее образование в Кембридже (cambridge.org).

3. Семочкина М. А. Инвестиционная деятельность с участием иностранных инвесторов в Российской Федерации (правовой аспект). Дисс. на соиск. уч. ст. канд. юрид. наук. – М.: МГУ. – С. 152.

4. Bo'riyev N.S Web of Teachers : inderscience Research "The role of foreign investments in the development of the regional economy" <https://scientific-jl.com/obr/article/view/12752>

5. Bo'riyev N.S Journal of international scientific research " investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va mintaq iqtisodiyotida tutgan o'rni" <https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/1785/1876>

6. Journal of economy and entrepreneurship Экономика и предпринимательство Приоритеты и перспективы эффективного использования потенциала региона в условиях инновационного развития. № 4 (177) 2025 г. (Vol. 19 Nom. 4)

7. Mukhammadieva Yu.Yu. Evaluation of impact of innovative processes in effective use of regional potential; <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/9849/19145>